

ВАЗОРАТИ МАОРИФ ВА ИЛМИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН

ДОНИШКАДАИ ОМУЗГОРИИ ТОҶИКИСТОН
ДАР ШАҲРИ ПАНҶАКЕНТ

МАХЗАНИ ИЛМ/ПАЁМИ ДОНИШКАДА, 2021, № 2:

МАВОДИ

он-лайн ва офф-лайн анҷумани илмӣ-амалӣ байналмилалӣ апрелӣ дар мавзӯи "Масоли мурабми улуми иҷтимоӣ-гуманитарӣ, риёзӣ ва дақиқ дар замони муосир", 26 апрели соли 2021 дар Донишкадаи омӯзгорӣ Тоҷикистон дар шаҳри Панҷакент

СОКРОВИШНИЦА НАУКИ/ВЕСТНИК ИНСТИТУТА, 2021, № 2.

МАТЕРИАЛЫ

научно-практической международной апрельской он-лайн и офф-лайн конференции, на тему «Актуальные проблемы общественно-гуманитарных, точных и естественных наук в современную эпоху», 26 апреля 2021 года в Таджикском педагогическом институте в городе Пенджикент

TREASURY OF SCIENCE/BULLETIN OF THE INSTITUTE, 2021, No. 2.

MATERIALS

of the scientific and practical international April online and off-line conference, on the topic "Actual problems of social and humanitarian, exact and natural sciences in the modern era", April 26, 2021 at the Tajik Pedagogical Institute in the city of Penjikent.

Панҷакент – 2021

ВАЗОРАТИ МАОРИФ ВА ИЛМИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН

**ДОНИШКАДАИ ОМУЌЗОРИИ ТОҶИКИСТОН
ДАР ШАҲРИ ПАНҶАКЕНТ**

МАҲЗАНИ ИЛМ/ПАЁМИ ДОНИШКАДА, 2021, № 2.

МАВОДИ

**он-лайн ва офф-лайн анҷумани илмӣ-амалии байналмилалӣ апрелӣ дар
мавзӯи “Масоили мубрами улуми иҷтимоӣ-гуманитарӣ, риёзӣ ва дақиқ
дар замони муосир”, 26 апрели соли 2021 дар Донишқадан омузгорӣ
Тоҷикистон дар шаҳри Панҷакент**

СОКРОВИШНИЦА НАУКИ/ВЕСТНИК ИНСТИТУТА, 2021, № 2.

МАТЕРИАЛЫ

**научно-практической международной апрельской он-лайн и офф-лайн
конференции, на тему «Актуальные проблемы общественно-
гуманитарных, точных и естественных наук в современную эпоху», 26
апреля 2021 года в Таджикском педагогическом институте в городе
Пенджикент**

TREASURY OF SCIENCE/BULLETIN OF THE INSTITUTE, 2021, No. 2.

MATERIALS

**of the scientific and practical international April online and off-line conference,
on the topic "Actual problems of social and humanitarian, exact and natural
sciences in the modern era", April 26, 2021 at the Tajik Pedagogical Institute in
the city of Penjikent.**

Панҷакент - 2021

МАХЗАНИ ИЛМ/ПАЁМНИ ДОНИШКАДА / ВЕСТНИК ИНСТИТУТА, 2021, № 2.

МАВОДИ он-лайн ва офф-лайн анҷумани илмӣ-амалии байналмиллатии апрели дар мавзӯи “Масоили ғубраи улуми ҷаҳмонӣ-гуманитарӣ, риёзӣ ва дақиқ дар замон муосир”, 26 апрели соли 2021 дар Донишқадан омӯзгорони Тоҷикистон дар шаҳри Панҷакент. – Панҷакент, 2021. – 785 с.

СОКРОВИЩНИЦА НАУКИ/ВЕСТНИК ИНСТИТУТА, 2021, № 2. МАТЕРИАЛЫ научно-практической международной апрельской он-лайн и офф-лайн конференции, на тему «Актуальные проблемы общественно-гуманитарных, точных и естественных наук в современную эпоху», 26 апреля 2021 года в Таджикском педагогическом институте в городе Пенджикент. – Пенджикент, 2021. – 785 с.

TREASURY OF SCIENCE/BULLETIN OF THE INSTITUTE, 2021, No. 2. MATERIALS of the scientific and practical international April online and off-line conference, on the topic "Actual problems of social and humanitarian, exact and natural sciences in the modern era", April 26, 2021 at the Tajik Pedagogical Institute in the city of Penjikent. – Penjikent, 2021. – 785 s.

Ҳайати таҳрирӣ/Редакционнаи коллегиа:

Ансорӣ М.К. – раис, **М.Одиназода, М.Имомзода, Н.Салимӣ, Ҷ. Ҷӯразода, Н.Ғаффоров, Петрусевич А.А., Даъырбеков С.С.** (Қазоқистон), **Боракбаев С.Р.** (Қазоқистон), **Алламов Б.Ф.** (Қазоқистон), **Шығайысбаев Б.М., Тлеужеева А.Б.** (Қазоқистон), **Исраилова Ж.С.** (Қазоқистон), **Абидлаева Г.С.** (Қазоқистон), **Шатырбекова А.А.** (Қазоқистон), **Саржанова К.Б.** (Қазоқистон), **Небеслава Ж.О.** (Қазоқистон), **Бекетова Г.Т., Қобулов Э., Эшов Б.Дж., Холшова Р.Э., Эришова А.С.** (Ўзбекистон), **Вохилов Ш.Х.** (муҳаррири масъул), **Шарифова Г.Х.** (муоаллими раис ва котиби масъул), **Ансоров С.М., Кӯҷагуродов А.**

Мукарирон/рецензентӣ:

Калешкин М.Ю., доктори илмҳои техникаӣ, проф. (Беларусь)
Аллаева Н., доктори илмҳои таърих (Ўзбекистон)
Қобулов Э., доктори илмҳои таърих, профессор (Ўзбекистон)
Бегалимова К.К. доктори илмҳои фалсафа, профессор Қазоқистон

Баззе фикр ва хулосаҳои дар маҷмӯа омада бо муқтасад назари таҳририят сохтор кӯмададанаш муваҷҷи аст. Барои дурустии интибос, ҳавола ва пайнавиштҳо дараҷан илмӣ, услуб ва байни мақолаҳо муаллифҳо масъулаанд.

Минбаъде редколлегиаи не ҳамагди совпадает с маънием автором. За достоверность цитат и ссылок, научный уровень, стилистику статей ответственны авторы.

Дар асоси қарори Шӯрои олимони Донишқадан омӯзгорони Тоҷикистон дар шаҳри Панҷакент ба нашр тавсия дода шуд (суратҷадваласи № 9 аз 22 апрели соли 2021).

144.	Турдиев Турдї Муллоловович, Шарипова Савоат Восиловна	МАНБАЮ ОҚИБАТҲОИ ИФЛОСШАВИИ ҲАВОИ АТМОСФЕРЇ ВА РОҲҲОИ ПЕШГИРИИ ОНҲО, (дар мақолаи Тоҷикистонӣ Шимолӣ)	553
145.	Умаров У. А.	СИҚЛИ ТАШКИЛИИ РУШДИ ФАЪОЛИЯТИ СОҲИБКОРЇ	555
146.	Умарова Заррина Шомутторовна, Одунова Санам Абдуразоковна, Атахонова Фарзона Алишеровна	АСОСҲОИ ТАДБИҚИ МУНОСИБАТИ САЛОҲИАТНОКЇ ДАР ТАЪЛИМИ ЭКОЛОГИЯИ МАКТАБЇ	557
147.	Умаров Б.	БУХОРОДА СУҒОРИЛИШ ТИЗИМИ ВА АНЪАНАВИЙ АГРОТЕХНИКА	560
148.	Файзуллоева Нодиратон Абдураъмоновна	БАЪЗЕ АЗ ХУСУСИЯТҲОИ ВАҚТИ КОРИ НИСБАТИ ЗАНОН ТИБҚИ ҚОНУНГУЗОРИИ ҚУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН	562
149.	Ғозилова Тўдфа, Давлатов Шукурбой Нодиршоевич	ПРОБЛЕМАИ ФЕРМА	565
150.	Ҳантов Ҳамза Алмадович	ЁШЛАР ТАЪЛИМ-ТАРБИЯСИДА ЎТМИШ ИЖОДКОРЛАР АСАРЛАРИ ВА ЛАТИФА УНСУРЛАРИНИНГ ЎРНИ	567
151.	Ҳамидов А.А., Махмудова Н.С., Икромов Н.А.	УЧЕБНОЕ КНИГООБЕСПЕЧЕНИЕ СИСТЕМЫ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ТАДЖИКИСТАНА	570
152.	Ҳолманова Ф.	КИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ҚЎШМА КОРХОНАЛАРИНИНГ ЎРНИ	573
153.	Ҳолмўминов Х., Эшмўминов О.З.	ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВОҲАЛАРИДАГИ ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАР (XIX АСР ОХИРИ XX АСР БОШЛАРИДА)	574
154.	Ҳамраева Танзиля Равильевна	РОЛЬ И МЕСТО ВЕЛИКОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ ВО ВЗАИМООБОГАЩЕНИИ И РАЗВИТИИ ЦИВИЛИЗАЦИЙ	578
155.	Ҳисомова Умеда Умаровна	АЗ ТАЪРИХИ ТАЪСИС ВА ФАЪОЛИЯТИ ОМУЪЗИШГОҲИ КАСЕЪ-ТЕХНИКИИ №50 ШАҲРИ КОНИБОДОМ	583
156.	Kodjayeva Fotima Nabixonovna	AHMAD G'AZZOLIY DAVRIDAGI TASAVVUFNING BA'ZI XUSUSIYATLARI	585
157.	Xoliqova Raqbar Ergashevna	ITIMOIY -GUMANITAR FANLARNI O'QITISHDA PEDTEKNOLOGIYALARNING O'RNINI ("O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARXI" FANINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLAR)	588

Паймановит:

1. Латипов Ф. Манбаи Хукар. – Кохибодом, 1995.-31 с.
2. Хошмова Ш.Ф. Начальное профессионально-техническое образование на севере Таджикистана в 1958-1985 гг. (исторический аспект). Дис. на соиск. уч. степ. канд ист. наук. - 07.00.02 – Отечественная история. - Худжанд, 2016. -178 с.
3. www.wikipedia.com – сайми мурофат 10.11.2020

Xodjayeva Fotima Nabixonovna,
Buxoro davlat universiteti doktoranti,

AHMAD G'AZZOLIY DAVRIDAGI TASAVVUFNING BA'ZI XUSUSIYATLARI

Ahmad G'azzoliy yashagan davrda so'fiylik g'oyasi butun musulmon dunyosida keng tarqalib, uning tarafdorlari ham ko'paydi. XI asr so'fiylik tarixida burulish davri bo'ldi. Ko'plab mutafakkirlarni shu jumladan Ahmad G'azzoliy singari allomalarni yetishib chiqishiga zamin yaratgan o'sha tarixiy muhitiga e'tibor qaratishimiz lozim.

Ahmad G'azzoliy yashab ijod qilgan davrda (XI-XII asrlar), Abbosiylar xalifaligining zaiflashuvi va musulmon dunyosida turli xil davlatlar – G'aznaviylar, Saljuqiylar, Fotimiylar, Ummaviylar (Ispaniyada) va boshqa ko'plab davlatlarning tashkil topgan davri edi. U yashagan bu davrda siyosiy hokimiyat Saljuqiy sultonlar qo'lida bo'lib, xalifalik faqat diniy boshqaruvida ta'siri bor edi.

Saljuqiylar o'z tobeligida bo'lgan yurtlarda fan va madaniyat taraqqiyoti uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishga intilganlar. Saljuqiylar xonadoniga mansub oliy hukmdormi, shahrodami yo malikami, hammalari mamlakatdagi biron-bir shaharda bir yoki bir necha madarasa qurishni o'z vazifalari, deb bilganlar. Ulardan vazirlar, amirlar, mahalliy hokimlar ham o'mak olib ish tutganlar. Chunonchi, tilga olganimiz mashhur vazir Nizomulmulk o'z davrida ko'plab madrasalar qurdirgan. Har bir madrasada o'nlab, yuzlab ilm toliblari ham diniy, ham dunyoviy sohalarda bilim olganlar. Madrasalarda tabiiy-aniq fanlar, ham ijtimoiy-diniy bilimlardan tahsil olingan. O'quvchilarga oylik nafaqa berib borilib, joy bilan ham ta'minlangan, ularni o'z davrining yetuk olimlari o'qitganlar, ilm toliblarining ixtiyorida ko'p ming jilddan iborat kutubxonalar bo'lgan. Ba'zi bir madrasalarda o'quvchilar soni minglab bo'lganini bilamiz. Masalan, Nizomulmulk tomonidan asos solingan "Nizomiya" madrasalaridan birida olti ming nafar talaba, ta'lim olgani ma'lum.

Nizomulmulkning oqilona va adolatli davlat boshqaruvi tufayli Malikshohning nomi tarixda qoldi. U adl va insofning buyuk me'mori edi. Vazirligi davrida Bog'dod, Barza va Isfahonda "Nizomiya" nomidagi madrasalar bino qiladi.¹ Bundan tashqari u ko'p olimlar va mashhur kishilarga homiylik qilib, moddiy yordam ko'rsatdi.

Malikshoh saljuqiylar imperiyasi poytaxti bo'lmish Mavroda katta observatoriya qurdiradi. Bundan tashqari bilim va ma'rifat tarqatishda, buyuk ajdodlar tarixiy-madaniy me'rosini saqlash uchun dunyoda kitoblar qiymati va soni jihatdan teng kelmaydigan kutubxonalarini tashkil etadi. Saroyda ilmiy madaniy muhit shakllanadi.

Millodiy XI asrga kelib tasavvuf tariqatida turli oqimlar mavjud edi. Tadqiqotchi M.Hazratqulov kitobida quyidagi tasavvuf silsilalari – qodiriylik, muxosibiylik, malomatiylik, qalandariylik, tayfuriylik, junaydiylik, rifoilylik, sabliylik, suhravardiylik, maloviylik, safaviylik, naqshbandiylik, Ne'matullohiylik, kubraviylik, shoziliylik, nuriylik, isoviylik va boshqalar ko'rsatilgan.

Saljuqiylar istibdodidan Erondagi turli firqalar va oqimlar o'z manfaatini ko'zlab harakat qila boshladi. Ulardan biri ismoiliylar edi. Ismoiliylar firqasining Erondagi rahnamesi

¹ Nizomulmulk "Siyosatnoma" To'chkent-2017, 7- bet

fotimiylar tayyorlagan Hasan ibn Sabboh bo'lgan. Ismoiliylar bosqinchilik yurishlari olib borish uchun katta kuchga ega bo'lmaganlari sabab terrorchilik va qo'poruvchilik ishlari bilan shug'ullanishgan. Ulug' purning ijozati bilan qotil – fidoyi savdogar, gado, xizmatkor yoki darvish niqobi ostida hukmdor saroyiga, amir qarorgohiga, masjidga, shahar bozoriga kirib olishga erishardi. Ularning yonida zaharlangan xanjar bo'lardi, qasd qilingan kishini poylab qulay vaqt kelganda halok qilgan. Ismoiliylar rejalarini mahfiy tutishar va o'z foydalarini ko'zlab oshkora bajarishardi. Firqa boshliqlari qotil-fidoyilarni, asosan, boylardan o'ta nafratlanadigan qashbochoq dehqonlar, singan hunarmandlar va boshpanasiz gadolar yordamida amalga oshirishgan.

Saljuqiylar bosh vaziri Nizomulmulk ismoiliylarning o'ta xatarli kuch ekanini anglab yetgandi, uning ko'rnatmalari bo'yicha firqaga mansub kishilar tutib qatl etilar edi. Bunga javoban ismoiliylar 1092-yili Nizomulmulkni, keyinroq uning o'g'lini o'ldirishdi.¹

Sulton Malikshoh vafot etgach, uning vorislari o'rtasida toj-taxt uchun kurash avj olib ketdi. Bir necha yillik kurashlardan so'ng 1118-yil Malikshohning o'g'li Sulton Sanjar (1118-1157) taxtni egallashga muvaffaq bo'ldi. Buyuk Saljuqiylar sulolasining so'nggi yirik vakili bo'lgan Sulton Sanjar davrida bir qancha viloyatlar Saljuqiylar davlatiga bo'ysundiriladi.

Saljuqiylar davlati singari ulkan hududlarni o'z ichiga olgan davlatni yagona markazdan turib boshqarish oson emas edi. Shuning uchun ham markazdan turib boshqaruvdagi qiyinchiliklar, sulola vakillarining toju-taxt uchun kurashlari, qaram o'lkalardagi norozilik harakatlari Saljuqiylar davlatining zaiflashuviga olib keldi. Ayniqsa, Sulton Sanjar vafoti bilan 1157-yilda qisman, 1194-yilda batamom Saljuqiylar hukmronligi o'z poyoniga yetdi.

Saljuqiylar davrida ma'lum bir muddatdagi siyosiy osoyishtalik, iqtisodiy faravonlik madaniy hayotning gurkirab yashashiga, ilm-fan va ma'rifatning rivojlanishiga, turli falsafiy qarashlarning taraqqiy topishiga olib keladi. Shu bilan birga Nizomiya madrasasidan bir qancha buyuk va mashhur olimlar yetishib chiqadi.

Ahmad G'azzoliy yashab ijod qilgan davrda tasavvuf maktablari faol rivojlanib boraverdi. So'fiylik tariqatlari va voizlarining nufuzi keskin oshdi. Ular musulmon hukmdorlarining sharafi va marhamatidan bahramand bo'lishdi.

Masalan, Saljuqiy sultonlari so'fiylar tariqatiga maxsus hududlar ajratib, u yerda o'zlarining takya ya'ni xonaqohlarini qurdilar. Ushbu xonaqohlar jamiyatning madaniy hayotining markaziga aylandi. Ushbu so'fiy markazlari asrlar davomida keyingi asrlarda faoliyat ko'rsatgan holda shakllanib bordi.

Saljuqiylar va usmonli davriga oid takyalar atrofida ko'pincha qabriston, hammom, masjid, molxona, ba'zan tegirmon joylashgan. Takyadagi vazifador shaxslar va ularning yaqinlari vafot etganlarida takya ichkarisida yoki oldidagi qabristonga dafa etilgan. Takyalar iqtisodiy jihatdan ham mustaqil edilar. Ko'pincha podshoh yoki boshqa bir davlat arbobi tomonidan vaqflar ajratilib, takyalarning moddiy ehtiyoji ta'minlangan va shu orqali davlat bilan tariqat orasida yaqinlik hosil bo'lgan.

Shunday qilib, ilmiy va falsafiy sohada buyuk o'zgarishlar yashagan va Islom jamiyatida kuchli ta'sir qilgan tasavvuf harakati, hijriy V-asrdan boshlab, turli tariqatlar ko'rinishida va takya-xonaqohlar atrofida yig'ilgan ijtimoiy, diniy uyushmalar holida maxsus asos-tizimlar ishlab chiqib, tasavvufiy fikr-qarashlarning amaliy hayotda shaxsan tadbiq etish davriga qadam qo'ydi. V-asrda Iroq, Xuroson va Eronning turli joylarida turli takyalar qurildi va bu takyalarni mashhur so'fiylar boshqarar edilar. Takya nizomini ilk bor ishlab chiqqan so'fiy Abu Said Abulxayr bo'lib, o'z davrida tasavvuf tushunchasining keng tarqalishiga beqiyos xizmat qilgan va bir necha takyalarni boshqarib turgan.

¹ Shodmon Vohidov, Alisher Qodirov "Sharqning mashhur sulolalari" Toshkent "Akademnasht" 2013-yil 160-161-bettlar

Tasavvufning genezisida, tashkiliy shakllanishida va keying nazariy-g'oyaviy takomillashuvida "xonaqo" instituti katta rol o'ynadi. Ma'lumki, dastlab ko'p hollarda so'fiylar tayyor darveshlar edilar. Darvesh so'fiylarni birlashtiruvchi muassasa sifatida "xonaqo" ilk bor Sharq musulmon olamida IX-X asrlar oralig'ida Xuroson va Muvorounnahrda, keyinroq G'arbiy Eron, Iroqda, Suriya va Misrda, shuningdek, Hindistonda paydo bo'ldi.

So'fiylar xonaqosi – o'zining uyi bo'lmagan so'fiylar uchun boshpana bo'lib, u yerda diniy urf – odatlar (ro'za, zikr, ibodat, tungi ibodat) ni jamoa bo'lib amalga oshirish, uchrashuvlar, bahslar o'tkazish, ba'zan ta'lim berish maskani bo'lgan. Xonaqo jamoa bo'lib yashashga, ma'lum bir intizomga rivoj qilishga, umumiy maqsadga intilishga – Ollohga qo'shilib ketishga tayyor bo'lganlar uchun doimo ochiq edi.

X asrdan boshlab xonaqolardagi suhbatlar, muqaddam yashab o'tgan shayxlar hayotidagi hikoyalar shayxlarni ham ularning izdoshlarini ham qoniqtirmay qo'ydi. Tasavvuf bo'yicha yirik nazariy asarlar yozishga ehtiyoj vujudga keldi. Bu asarlarda asosiy nazariy qoidalar, so'fiylarning amaliy faoliyati uchun ko'rsatmalar bayon qilinishi, maqomlar joylashish tartibini, ularning orasidagi chegaralarini, holatlarini aniqlash, mashhur shayxlar hayoti va ijodi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va qoldirish, Qur'on oyatlari va payg'ambar hadislarining so'fiylik jamoalari manfaatlariga mos ravishda sharhlash kabi muhim masalalar o'z o'rnini topmog'i zarur edi.

Aynan shu davrda so'fiylar yuqorida zikr etilgan vazifalarni bajarish ustida qattiq ish olib bordilar. Avval yashab o'tgan shayxlar hayoti to'g'risida hikoya qilingan asarlar, Qur'on va hadislarining ko'p jildli tafsilari, tasavvuf ta'limotiga doir ko'plab asarlar paydo bo'ldi.

Bunday asarlar sirasiga X asr oxiri XI asr boshlarida yaratilgan Qushayriyning "Risola fi-tasavvuf", Hujviriyning "Kashf ul-mahjub", Ansoriyning "Manozil-as-soirin", Sulamiyning "Tabaqot as-sufiya", Abu Nuaymaning "Kuliyat ul-uliya" kabi asarlarni kiritish mumkin. Yuqorida nomi zikr etilgan mualliflar o'z asarlari orqali tasavvufdan islom qoidalarini asoslashda foydalanibgina qolmay, tasavvufga xos bosqichlarni ham ishlab chiqdilar.

Hijriy V-asrda tasavvuf harakati juda tez tarqaldi. Bunga sabab: bu asrda Islom olamida turli ziyosiy diniy mojarolar avjiga chiqqan edi; bir tomondan abbosiy xalifalari bilan rasman ularga tobe bo'lgan sultonliklar o'rtasidagi ixtiloflar, ikkinchi tomondan mazhablar orasidagi tortishuvlar va faqihlar bilan faylasuflar o'rtasidagi kelishmovchiliklar davom etayotgan edi. Shunday bir to'polonli davrda u yoki bu tomonga mansub kishilar o'z fikrlarining haqligini isbotlash uchun asarlar yozardilar. Bu esa ilmiy soha rivojlanishiga yo'l ochdi. Ana shunday janjal va to'polonlardan bezovta-behurur bo'lgan musulmonlar, maskur ixtiloflarga aralashmayotgan va oxirat saodatini maqsad qilgan tasavvuf ta'limotiga mayl etishni afzal ko'rdilar. Shu sababli so'fiylarga o'z fikrlarini yanada kengroq yoyish uchun fursat topildi. Mazhab tortishuvlaridan chetda turgan so'fiylar, ayni vaqtda sultonlar va davlat arboblarning ham hurmat-etiborini qozondilar.¹

Bu davrning eng mashhur tasavvuf klassiklaridan ba'zilari Abu Abdurahmon Sulamiy, Ahmad G'azzoliy, Abu Nuaym al-Isfahoniy, Abu Said Abulkayr, Abulqosim, Abdulkarim al-Kushairiy edi. Xuddi shu davrda so'fiy she'riyat rivojlana boshladi. She'riyatda ko'plab so'fiylar o'zlarining g'oyalarining ramziy mazmunini ifoda etdilar. Ko'plab shoirlar Erondan bo'lgan.

Ahmad G'azzoliy yashagan davrning murakkabligi, ijtimoiy-ziyosiy vaziyat, vazir Nizomulmulkning ma'rifat va ta'lim sohasidagi islohotlari, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik sabab xalifalikda vujudga kelgan turli teologik g'oyaviy harakatlar va ular qarashlar o'rtasidagi raqobat hamda kurash buyuk alloma, mutafakkirlarning yetishib chiqishiga zamin yaratgan.

¹ Uzman Turar Tasavvuf tarixi To'xtakent 1999, 59-60-betlar

Kulosa qilib aytganda, IX-XII asrlar musulmon dunyosi va madaniyati katta yutuqlar va muhim ilmiy kashfiyotlar davri bo'lganligidan, bu davrni ba'zi tadqiqotchilar Sharq madaniyatining "oltin davri" deb e'tirof etadilar. O'sha davrda arab xalifaligi tarkibiga kirgan Movarounnahr va Xuroson mintaqasi madaniy-ma'rifiy yuksalishni ta'minlovchi asosiy nuqtalardan biri edi. Buni isboti sifatida shuni aytish lozimki, ilmiy yuksalishda ishtirok etgan Ahmad G'azzoliy va boshqa mutafakkirlarning asosiy qismi ushbu zamin farzandlaridir.

Adabiyotlar:

1. Nizomulmulk "Siyosatnoma" Toshkent-2017, 7- bet
2. Shodmon Vohidov, Alisher Qodirov "Sharqning mashhur sulolalari" Toshkent "Akademnashr" 2013-yil 160-161-betlar
3. Usmon Turar Tasavvuf tarixi Toshkent 1999, ,59-60-betlar

Kholiqova Raxbar Ergashevna,
tarix fanlari doktori, professor Toshkent davlat texnika universiteti
@tdtu.uzrahbarkholikova@mail.ru Toshkent, O'zbekiston.

IJTIMOIY –GUMANITAR FANLARNI O'QITISHDA PEDTEKNOLOGIYALARNING O'RNINI ("O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI" FANINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLAR)

Annotatsiyalar: Ushbu maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda pedtexnologiyalarning o'rniga to'xtalib, O'zbekistonning eng yangi tarixi fanini o'qitishda, samarali o'tishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq ekanligi haqida so'z boradi. Ayniqsa O'zbekistonning eng yangi tarixi fanidan seminar mashg'ulotlarida interfaol usullarni qo'llash talabalar tomonidan mavzularni o'zlashtirish darajasiga yordam berishi, ularni mustaqil fikrlashga va o'z fikrini bayon etishga o'rgatish vazifasini samarali hal qilish uchun shart-sharoit yaratishi haqida to'xtab o'tilgan.

Kalit so'zlar: pedtexnologiyalar, tarix, ta'lim jarayoni, interfaol usullar, axborot texnologiyalari, oliy ta'lim muassasalari, o'quv jarayoni, dars, loyiha, "Davra suhbat", "Taqqoslash", "O'zingni tekshir", "Konseptual jadval", "Fikriy hujum", "Yalpi fikriy hujum", "Fikrlarning shiddatli hujumi", "6x6x6x6", "Aqliy hujum", "Intervyu", "Klaster", "Bilag'onlar ko'chasi", "Taqdimot".

Intellektual salohiyat va fan-texnika yuksak darajada taraqqiy etgan hozirgi davrda ta'lim tizimiga ham texnologik yondashuv davr talabidir. Pedagogik texnologiyalar bir tomonidan o'qituvchining kasbiy mahoratini ilg'or o'qitish usullari va texnik vositalar yordamida faollashtirish orqali ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ikkinchi tomondan pedagogik ta'limni kuchaytirish, uning samarasini oshirish asosida talabaniy bilim faoliyatini boshqarish, fanlarni o'zlashtirish qobiliyatini o'stirish vositasida ta'lim jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni, jumladan "O'zbekistonning eng yangi tarixi"ni o'rganish va o'qitishning samaradorligini oshirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari, jumladan, interfaol o'qitish usullarining ahamiyati katta. "Interfaol", ya'ni "interaktiv" atamasi ingliz tilidan kirib kelgan "interact" so'zidan yasalgan bo'lib, "inter" - "o'zaro", "act" - "harakat qilmoq" ma'nolarini anglatadi. Interfaollik o'zaro, birgalikda harakat qilish yoki biror narsa (masalan, inson bilan) suhbat, munozara yoki muzokara holatida bo'la olish qobiliyatidir. Shunga ko'ra suhbat, munozara va muzokara tarzida o'qitish, ya'ni interfaol o'qitish avvalo o'qituvchi va talabaniy o'zaro hamkorlikdagi faoliyatidir. Interfaol o'qitish-bu bilish